

**TALABALARDA MILLIY INDEKTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK JIHLTLARI****Turakulova Okila Amirkulovna,***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**o'zbek adabiyoti va uni o'qitish kafedrasida dotsenti,**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*shakhrizodf@bk.ru**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18844755>

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashtirish sharoitida talabalarda milliy identifiklikni rivojlantirishning pedagogik asoslari, nazariy-metodologik jihatlari va amaliy mexanizmlari tahlil etiladi. Milliy o'zlikni anglash tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berilib, uning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari yoritiladi. Shuningdek, Sharq va G'arb mutafakkirlarining, xususan Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat hamda Abdulhamid Cho'lpon qarashlari asosida milliy identifiklikni shakllantirishning pedagogik tamoyillari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: milliy identifiklik, milliy o'zlikni anglash, pedagogik mexanizmlar, oliy ta'lim, ma'naviy tarbiya, jadidchilik, integrativ yondashuv, milliy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi.

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations, theoretical-methodological aspects, and practical mechanisms for developing students' national identity in the context of globalization. The essence and content of the concept of national self-awareness are clarified, and its cognitive, emotional, and behavioral components are examined. In addition, the pedagogical principles of forming national identity are substantiated based on the views of Eastern and Western thinkers, in particular Abu Nasr Farabi, Abdulla Avloni, Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, and Abdulhamid Cholpon.

Keywords: national identity, national self-awareness, pedagogical mechanisms, higher education, spiritual education, Jadidism, integrative approach, national values, civic position.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические основы, теоретико-методологические аспекты и практические механизмы развития национальной идентичности у студентов в условиях глобализации. Раскрывается содержание понятия национального самосознания, освещаются его когнитивные, эмоциональные и поведенческие компоненты. Также обосновываются педагогические принципы формирования национальной идентичности на основе взглядов восточных и западных мыслителей, в частности Абу Насра Фараби, Абдуллы Авлони, Махмудходжи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата и Абдулхамид Чулпана.

Ключевые слова: национальная идентичность, национальное самосознание (или осознание национальной идентичности), педагогические механизмы, высшее образование, духовное воспитание, джадидизм, интегративный подход, национальные ценности, гражданская позиция.

Kirish. Bugungi globallashtirish jarayonida yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, o'z xalqining tarixi, madaniyati va qadriyatlariga hurmat bilan qarash tuyg'usini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Milliy o'zlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki talabaning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Milliy o'zlikni anglash qanday shakllanadi? Berilgan savol ikkita tushunchani o'z ichiga oladi, ularni tushuntirish lozim. "O'zlikni anglash" va "millat" nima? Milliy tushunchada ba'zan davlatga sodiqlik yoki o'zini davlatga mansub

deb bilish, ba'zan esa etnik jamoa sifatida millatga mansublik yashiringanligini tushunishimiz kerak. O'zlikni anglash (inglizcha Identity) — inson ruhiyatining o'zini turli ijtimoiy, milliy, kasbiy, til, siyosiy, diniy, irqiy va boshqa guruhlariga mansubligini o'zi uchun jamlangan holda ifodalash xususiyati. Milliy o'zlikni anglash — inson o'zini ma'lum bir millat, mamlakat, madaniy makonga mansubligini his qilish bilan bog'liq bo'lgan o'zlikni anglashning tarkibiy qismidir. Milliy o'zlikni anglash fuqarolik yoki millat tushunchalaridan farq qiladi, garchi ular unga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillar bo'lishi mumkin. Milliy o'zlikni anglash tug'ma xususiyat emas. U ma'lum bir guruh odamlar bilan madaniyat, tarix, til umumiy ekanligini o'rgangan holda anglashdan kelib chiqadi. Bunga insonning ma'lum bir davlatga mansublik hissi, uning davlat o'zlikini anglash, milliy g'oya va davlat ramzlariga sodiqligi qo'shilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimida pedagogik model asosida milliy o'zlikni shakllantirish jarayoni talabalarning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur model orqali yoshlar o'z milliy qadriyatlarini anglab yetish, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish, hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida uyg'un muvozanatni saqlashga o'rgatiladi. Talabalarda milliy o'zlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari — bu ta'lim jarayonida ma'naviy, madaniy va intellektual kamolotga erishishni ta'minlaydigan, milliy qadriyatlar asosida yo'naltirilgan tizimli yondashuvdir. Ta'lim tizimi bu jarayonni yo'lga qo'yishda markaziy rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir pedagog milliy qadriyatlarni singdirish va shaxsiy namuna bo'lish orqali bu muammoni hal etishga hissa qo'shadi. O'zlikni anglashning shakllanish jarayoni va omillari Sharq hamda G'arb allomalari tomonidan har taraflama o'rganilgan. Sharq allomalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Nasafiy, Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalar o'zlikni anglashning ruhiy, botiniy jihatlari, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam va odam munosabatini bilish asosi ekani kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyani yodga oling. Unga ko'ra, jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qa'iy nazar, fozil kishidir. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, ularga amal qiladi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda, Vatani uchun jon fido qiladi. Ota-ona va farzand, ustozu—shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi. Avvalo, bunday fikr yuritishning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi, ular ruhiyati, tafakkuri naqadar yuksak bo'lganligini ko'rsatadi.

Natijalar. Milliy identiklik (milliy o'zlikni anglash) masalasi jadid adabiyoti vakillarining pedagogik qarashlarida ham markaziy o'rin tutgan. Jadidlar milliy identiklik, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy-hayotiy yaqinlashuvni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Jadidlarning milliy o'zlik haqidagi qarashlari asosan til va madaniyatni saqlashda, ta'lim islohotida, yangi ijtimoiy tizimda, siyosiy ongni shakllantirishda, diniy munosabatlarda

namoyon bo'ldi. Jadidlar milliy o'zlikni, tarixini va madaniyatini saqlab qolishga intilganlar. O'zbek tilining rivojlanishi va uni ta'lim jarayonida keng qo'llashni muhim deb hisoblashgan. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarning tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo'yilgan bosh masala bo'lgan. 1900-1925 yillar "jadidchilik" tushunchasining paydo bo'lishi o'z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir [1:26].

Jadid allomalari yangi ta'lim metodlarini joriy etish, an'anaviy diniy ta'limdan zamonaviy bilimlarga o'tishni maqsad qilishgan. Jadidlar ta'lim orqali milliy ongni oshirishga, yoshlarni milliy qadriyatlarga mehr qo'yishga chaqirgan. O'rta Osiyo jamiyatida yangi ijtimoiy tuzilmalarni o'rnatish va adolatli va teng huquqlilikka asoslangan ijtimoiy sharoitlarni yaratishga intiladilar. Bu esa ularning milliy identikliklarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, jadid ajdodlarimizning milliy identiklik xususiyatlari va milliy o'zlikni anglashga nisbatan milliy g'oyalari juda kuchli shakllangan bo'lgan. Jadid allomalar millat orzulari, xalq orzulari uchun kurashganlar. A.Fitrat milliy identiklikni shakllantirishda til va adabiyotning o'rini katta ahamiyatga ega deb bilgan. U, shuningdek, milliy xarakter va qadriyatlar, xalqning o'ziga xos hayot tarzini va urf-odatlarini o'rganish va ularga e'tibor berish zarurligini ta'kidlagan. Milliy identiklik, shuningdek, mustaqillik va o'z-o'zini anglash bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonlar xalqning kelajagini belgilovchi muhim elementlardir. Umuman olganda, Fitrat milliy identiklikni saqlash va uni rivojlantirishning ahamiyatini yaxshi anglagan va o'z asarlarida bu masalalarni ko'targan. Milliy identiklik murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u millatning tarixi, madaniyati va kelajagi bilan bog'liqdir. Jadidlar ma'rifat, ta'lim va tarbiya orqali millatni uyg'otish, uni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqishni asosiy maqsad deb bilganlar.

M.Behbudiy milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida yangi usul maktablarini (usul-i jadid) rivojlantirishni ko'rdi. Uning fikricha ta'lim milliy ongni shakllantiradi. Darsliklar milliy ruhda yozilishi kerakligini, tarbiya orqali yoshlar o'z tarixini, tilini va dinini anglab yetishi kerakligini o'z asarlarida ko'rsatib bergan. U maktabni millatni uyg'otuvchi eng muhim ijtimoiy institut deb baholagan. Mahmudxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus yetmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur yeta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat yeshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi" [2:56]. Til va milliy ong masalasi esa Abdulla Avloniyning qarashlarida aks etgan. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya va axloq masalasini milliy taraqqiyotning poydevori sifatida ilmiy-pedagogik asosda talqin etadi. Uning qarashlariga ko'ra, milliy tiklanish avvalo shaxs tarbiyasidan boshlanadi, shaxs kamoloti esa til, axloq va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida shakllanadi.

A. Avloniy ona tilida ta'limni milliy identiklikni saqlashning eng muhim omili sifatida baholaydi. Zero, til – millatning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ijtimoiy tafakkurini mujassam etuvchi vositadir. Ona tilida berilgan ta'lim o'quvchida milliy o'zlikni anglash, tarixiy ildizlarga hurmat va ma'naviy merosga sadoqat tuyg'ularini shakllantiradi. Bu jarayon identifikatsiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini mustahkamlaydi hamda yosh avlodni begonalashuvdan asraydi. Shuningdek, Avloniy axloqiy tarbiyani milliy qadriyatlar negizida qurish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, axloq – jamiyat barqarorligining mezoni, millat istiqbolining kafolatidir. Halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilmga muhabbat kabi fazilatlar milliy tarbiyaning asosiy tamoyillari sifatida talqin qilinadi. Bunday tarbiya modeli shaxsni nafaqat ma'naviy barkamol etadi, balki uni jamiyat taraqqiyotida faol subyektga aylantiradi. Ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, Avloniy konsepsiyasida ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Til – identiklikni shakllantiruvchi kognitiv omil, axloq esa uni mustahkamlovchi aksiologik asosdir. Shu bois Avloniy qarashlari milliy identiklikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini belgilab beradi va bugungi kunda ham o'z pedagogik ahamiyatini saqlab qolmoqda. O'qituvchi millat tarbiyachisi sifatida mas'ul shaxsdir. Avloniy ta'limni “yo hayot – yo mamot masalasi” deb ta'riflaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov milliy maktablarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni joriy etish tarafdori bo'lgan. U milliy o'zlikni saqlagan holda Yevropa ilm-fanini o'rganish zarurligini ta'kidlagan. Ta'lim tizimini yangilash orqali jamiyatni modernizatsiya qilishni maqsad qilgan. Bu qarashlar milliy identiklikni izolyatsiyada emas, balki ochiq va taraqqiyparvar shaklda tushunishni ko'rsatadi. Adabiyot orqali milliy o'zlikni shakllantirish Abdulhamid Cho'lpon asarlarida, qarashlarida ham aks etadi. Cho'lpon ijodida millat taqdiri, erkinlik va ma'naviy uyg'onish g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. U adabiyotni milliy ongini uyg'otuvchi vosita sifatida ko'radi. Asarlarida milliy ruh va mustaqillik g'oyasini targ'ib qiladi. Jadid adabiyoti yosh avlodni milliy iftixor va mas'uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Jadidlar qarashlarida milliy identiklikning pedagogik jihatlari ona tilida ta'lim – milliy ongini shakllantirishning asosi sifatida, axloqiy tarbiya – milliy qadriyatlarga tayanish asosida, zamonaviy bilimlar – millat taraqqiyoti uchun zarur omil bo'lib, milliy tarixni o'rgatish – o'zlikni anglash vositasi ekanligi, o'qituvchi shaxsining roli – ma'rifat va millat fidoyisi sifatida namoyon bo'ladi. Jadid adabiyoti vakillari milliy identiklikni shakllantirishni, avvalo, pedagogik jarayon bilan bog'ladilar. Ularning qarashlarida ta'lim — millatni uyg'otuvchi, tarbiya esa uni mustahkamlovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Milliy o'zlikni anglash esa faqat tarixiy xotira emas, balki zamonaviy bilim va ma'naviy kamolot bilan uyg'un jarayondir.

Milliy identiklik tushunchasining pedagogik mohiyati haqida gapirar ekanmiz, pedagogik nuqtayi nazardan milliy identiklik — bu shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlarni o'zlashtirishi, ularni ongli ravishda qabul qilishi va amaliy faoliyatida namoyon etishidir. Kognitiv komponent – millat tarixi, tili va madaniyati haqidagi

bilimlar, emotsional komponent – milliy iftixor va sadoqat hissi, xulq-atvor komponenti – milliy qadriyatlarga mos faoliyat va munosabat. Ona tilida bilim olish talabani milliy tafakkurini rivojlantiradi, tarixiy xotirani mustahkamlaydi va madaniy merosni anglashga xizmat qiladi. Tarix va madaniyatni o‘qitish milliy tarixni chuqur o‘rganish talabada tarixiy vorislik hissini shakllantiradi. Adabiyot va san‘at darslari esa estetik ongni boyitadi. Talabalarda milliy identiklikni rivojlantirish pedagogik jihatdan tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Integrativ yondashuv ta‘lim jarayonining barcha fanlarida milliy mazmun elementlarini uyg‘unlashtirish orqali talabani yaxlit dunyoqarashini shakllantiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar — interfaol metodlar, munozara va loyihaviy faoliyat — milliy masalalarni tanqidiy va ongli ravishda anglash imkonini beradi. Madaniy-ma‘rifiy tadbirlar talabalarda tarixiy xotira va milliy iftixor tuyg‘usini mustahkamlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim esa talabani individual qadriyat tizimini rivojlantirib, milliy identiklikni ichki e‘tiqod darajasiga olib chiqadi. Shu tariqa, mazkur mexanizmlar uyg‘unligi milliy o‘zlikni anglashning barqaror pedagogik modelini shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik talablarga ko‘ra, milliy identiklikni rivojlantirish ochiq, tolerant va ko‘p madaniyatli ta‘lim muhitida amalga oshirilishi zarur. Shu bilan birga, u talabalarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlab, jamiyat oldidagi ijtimoiy mas‘uliyatini oshiradi. Natijada milliy identiklik shaxsning barqaror ijtimoiy-axloqiy kompetensiyasiga aylanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda talabalarda milliy identiklikni rivojlantirish — bu ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u ta‘lim va tarbiya uyg‘unligida amalga oshiriladi. Ona tilida ta‘lim, milliy tarix va madaniyatni chuqur o‘rganish, axloqiy qadriyatlarni singdirish mazkur jarayonning asosiy omillaridir. Jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari milliy o‘zlikni anglash va uni rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab bergan bo‘lib, ularning g‘oyalari bugungi oliy ta‘lim tizimida ham dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi —2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni// lex.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Tashaev L.A. Yoshlar bilan ishlashda axloqiy identiklikning nazariy- metodologik tahlili. *Philosophy&law journal*.2023/3
4. Ergashev A. *Sharq mutafakkirlari merosida milliy qadriyat va identiklik*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2016.
5. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1999. – 240 b.
7. Munavvarqori Abdurashidxonov. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Sharq, 2003. – 256 b.
8. Abdulhamid Cho‘lpon. *Asarlar*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994. – 320 b.
9. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 23-25 b.